

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU**  
**ILMIY**  
**XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024 1-SON**  
**ILOVA TOPLAM: GEOGRAFIYA**

**НАУЧНЫЙ**  
**ВЕСТНИК.**  
**ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>D.G'.Mo'minov, X.O.Abdinazarova</b>	
Tabiiy landshaftlardan iqtisodiy – ijtimoiy geografik foydalanishning bazi masalalari .....	144
<b>M.O.Gopirov</b>	
Изменения в территориальной структуре автомобильной промышленности США .....	148
<b>Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev</b>	
Ershi shahrining yuzaga kelishi va rivojlanishda geomorfologik omillarining o'rni va ahamiyati .....	153
<b>K.M.Mahmudov, X.T.Egamberdiyev, G.X.Xolbayev, S.M.Muminova</b>	
Iqlim o'zgarishi sharoitida havo harorati hamda atmosfera yog'inlarining o'zgarishini baholash (Andijon viloyati bo'yicha) .....	157
<b>O.I.Abdug'aniyev, Z.I.Mamirova, N.A.Ahmadjonova</b>	
Yer tuzish ishlarida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni loyihalashtirish va asoslash.....	167
<b>A.M.Toshpo'latov, Sh.Z.Jumaxanov</b>	
Anklav hududlarni geografik tadqiq etishning konseptual asoslari .....	172
<b>D.R.Eshmirzayev, G.X.Xolbayev, X.T.Egamberdiyev</b>	
Iqlim o'zgarishi sharoitida havo haroratining davrlar bo'yicha o'zgarishini baholash (Samarqand viloyati misolida) .....	180
<b>E.G'.Mahkamov, Sh.Sh.Hakimova</b>	
Tabiatdan oqilona foydalanish va muhofaza qilishning tarixiy-ekologik jihatlari .....	186
<b>Y.I.Ahmadaliyev, B.S.Tojiddinov, X.I.Saidova</b>	
Yer resurslarini majmuali tadqiq etishga geografik yondashuvning zarurati.....	190
<b>N.O'.Komilova</b>	
Etnoekologik tadqiqotlarning ijtimoiy-geografik yo'nalishlari va bosqichlari.....	195
<b>Y.I.Ahmadaliyev, P.S.Otaqulov, A.E.Madraximov</b>	
Geografik terminlarning tabiatni muhofaza qilishdagi o'rni va ahamiyati.....	199
<b>Z.A.Temirov, D.A.Turg'unboyeva</b>	
Tashqi mehnat migratsiyasining demografik jarayonlarga ta'siri.....	206
<b>O.I.Abdug'aniyev, M.M.Qahhorova</b>	
Tayanch ornitologik hududlarini muhofaza qilishning ekologik-geografik jihatlari.....	212
<b>M.M.Atajonov</b>	
Andijon viloyati qishloq joylarida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning ba'zi bir masalalari .....	217
<b>A.A.Isayev, S.A.Ergashev</b>	
Andijon viloyatida paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan sikilli ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish .....	220
<b>M.N.Dehqonboyeva, M.R.Mahammadova</b>	
Farg'ona viloyatida yo'ldosh shaharlar loyihasining ayrim jihatlari .....	224
<b>D.M.Abduraxmonov</b>	
Landshaftlarni funksional rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar .....	230
<b>D.B.Kosimov</b>	
Chegara hududlaridagi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni integratsiyasining nazariy asoslari .....	234
<b>H.N.Naimov</b>	
Landshaftlarni kartalashtirish va ulardan foydalanish masalalari (Shimoliy Farg'ona misolida) .....	239
<b>M.H.Otamirzayeva</b>	
Daryo havzasi landshaftlarining strukturasi va funksiyasini shakllantiruvchi tabiiy, biologik va ijtimoiy tizimlar .....	243
<b>U.Sh.Uktamov</b>	
Markaziy Farg'ona cho'l landshaftlarining antropogen omillar ta'sirida sodir bo'layotgan o'zgarishlari.....	248
<b>S.M.Xudoyberdiyeva</b>	
Talabalarda sport turizmi ko'nikmalarini shakllantirishda tabiat elementlarining o'rni.....	252
<b>T.D.Komilova</b>	
Hududlarning ekologik karkasini rejalashtirishda landshaft yondashuvidan foydalanish .....	257

**TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASINING DEMOGRAFIK JARAYONLARGA TA'SIRI (Andijon viloyati misolida)**

**ВЛИЯНИЕ ИНОСТРАННОЙ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ НА ДЕМОГРАФИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ (на примере Андижанской области)**

**IMPACT OF FOREIGN LABOR MIGRATION ON DEMOGRAPHIC PROCESSES (in the case of Andijan region)**

**Temirov Zokirjon Abdilvoxidovich<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Andijon davlat universiteti, geografiya kafedrası v.b. dotsenti, g.f.f.d. (PhD)

**Turg'unboeva Dilshoda Azamjon qizi<sup>2</sup>**

<sup>2</sup>Andijon davlat universiteti geografiya yo'nalishi magistranti  
Ulug'bek nomidagi davlat stipendiyasi sohibi

**Annotatsiya**

*Jahon xo'jaligi rivojlanib, mamlakatlararo integratsion aloqalar kuchayib borgan sayin, mehnat migratsiyasi ham tobora intensivlashib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlar va past rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi farqlarning uzluksiz chuqurlashib borayotgani ham ushbu jarayonlarni jadallashtirishga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Mehnat migratsiyasi kishilik jamiyati taraqqiyotining hozirgi bosqichida migratsiyaning o'ziga munosib ish va yuqori daromad topish maqsadida amalga oshirilgan alohida turi bo'lib, iqtisodiyoti og'ir ahvolda bo'lgan kam rivojlangan mamlakatlarda bandlik va ish haqining o'tkir muammolarini hal etishning asosiy vositalaridan biriga aylandi.*

*O'zbekistonda mustaqillik yillarida iqtisodiyotning barcha yonalishlarida tub islohatlar amalga oshirildi. Mulkchilik shakllariga bo'lgan munosabat o'zgardi. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy tizimni yuzaga kelishi aholi bandligiga o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatdi. Natijada, mamlakat aholi bandligini oshirishda tashqi mehnat migratsiyasi yuzaga keldi. Tashqi mehnat migratsiyasining bir qator ijobiy jihatlari bilan birga demografik jarayonlar rivojlanishiga sezilarli ta'siri mavjud. Shu maqsadda mazkur maqolada tashqi mehnat migratsiyasining demografik jarayonlarga ta'sirini o'rganishga harakat qilindi.*

*O'zbekistonda aholi bandligi va daromadini oshirishda tashqi mehnat migratsiyasi muhim o'rin tutadi. Shuningdek, tashqi mehnat migratsiyasining jamiyatda no'to'liq oilalarning ko'payishi, ajralishlarning o'rtib borishi va farzandlar tarbiyasiga salbiy ta'siri kabi muammolarni yanada murakkablashuviga olib kelmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib mazkur tadqiqot ishida migratsiya masalalari, hususan tashqi mehnat migratsiyasining demografik jarayonlarga ta'siri sotsiologik so'rovnomaga usuli orqali o'rganilgan.*

**Аннотация**

*По мере развития мировой экономики и укрепления межстрановых интеграционных связей трудовая миграция становится все более интенсивной. Постоянное углубление различий между развитыми и слаборазвитыми странами оказывает сильное влияние на ускорение этих процессов. На современном этапе развития человеческого общества трудовая миграция представляет собой особый вид миграции, осуществляемой с целью поиска достойной работы и высокого дохода, и стала одним из основных средств решения острых проблем занятости и заработной платы в слаборазвитых странах. со сложной экономикой.*

*За годы независимости в Узбекистане были реализованы коренные реформы во всех сферах экономики. Изменилось отношение к формам собственности. Появление экономической системы, основанной на рыночных отношениях, оказало существенное влияние на занятость населения. В результате произошла внешняя трудовая миграция при одновременном увеличении занятости населения страны. Наряду с рядом положительных моментов внешняя трудовая миграция оказывает существенное влияние на развитие демографических процессов. С этой целью в данной статье предпринята попытка изучить влияние внешней трудовой миграции на демографические процессы.*

*Многие дисциплины, в том числе экономисты, экономические географы, демографы и представители других дисциплин, изучают население, его динамику и прогноз. Среди них важное место занимают экономические географы, изучающие численность, динамику, состав и территориальные различия населения, а также пути решения проблем.*

*В статье вопросы миграции, особенности влияния внешней трудовой миграции на демографические процессы изучались методом социологического опроса.*

**Abstract**

*As the world economy develops and inter-country integration relations become stronger, labor migration is becoming more and more intensive. The continuous deepening of differences between developed countries and low-developing countries has a strong influence on the acceleration of these processes. At the current stage of human society development, labor migration is a special type of migration carried out in order to find a decent job and high income, and has become one of the main means of solving the acute problems of employment and wages in underdeveloped countries with a difficult economy.*

*During the years of independence in Uzbekistan, fundamental reforms were implemented in all areas of the economy. The attitude towards forms of ownership has changed. The emergence of an economic system based on market relations had a significant impact on the employment of the population. As a result, external labor migration*

occurred while increasing the employment of the country's population. Along with a number of positive aspects, foreign labor migration has a significant impact on the development of demographic processes. For this purpose, this article tried to study the impact of foreign labor migration on demographic processes.

Many disciplines, including economists, economic geographers, demographers and representatives of other disciplines study the population, its dynamics and forecast. Among them, economic geographers take an important place and study the number, dynamics, composition and territorial differences of the population, as well as ways to solve problems.

In the article, migration issues, especially the impact of foreign labor migration on demographic processes, were studied using the sociological survey method.

**Kalit so'zlar:** migratsiya, mehnat migratsiyasi, tashqi migratsiya, migratsiya saldosi, demografik jarayonlar, tug'ilish, nikoh va ajralish.

**Ключевые слова:** миграция, трудовая миграция, внешняя миграция, миграционный баланс, демографические процессы, рождение, брак и развод.

**Key words:** migration, labor migration, foreign migration, migration balance, demographic processes, fertility, marriage and divorce.

---

### KIRISH

Andijon viloyati demografik jarayonlarida migratsiya muhim o'ringa ega. Mamlakat migrantlarining 4,5 foizi ushbu viloyatga to'g'ri keldi. Mustaqillik yillarida Andijon viloyatida ham mamlakatdagi singari migratsiya hajmi qisqarib bordi. 1991-yilda viloyatda jami migrantlar 47,2 mingtani tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda 15,8 ming kishi migratsiyada ishtirok etdi. Jumladan, 1991 yilda mamlakatdagi jami migrantlarning 5,9 foizi Andijon viloyatiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2020-yilda mintaqaning ulushi 4,5 foizni tashkil etib, 1,4 foizga kamaydi.

Andijon viloyatida jami migrantlarning asosiy qismi viloyatlararo va tumanlararo ichki migratsiyada ishtiroq etadi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, ichki migrantlar 17319 kishi va tashqi migrantlar 129 kishi bo'lib, ularning hissasi mos ravishda 99 va 1 foizni tashkil etadi. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi ma'lumotlariga ko'ra horijda ishga jolashgan O'zbekiston fuqarolari 38401 kishini, shundan 4077 kishi yoki 10,6 foizi Andijon viloyati aholisiga to'g'ri keladi<sup>10</sup>. Shuningdek, rasmiy statistikaga ega bo'lmagan tashqi mehnat migrantlarining soni bilan mazkur ko'rsatkich yanada ortib ketadi.

O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda Andijon viloyatida emigrantlarning qariyb 67 foizi Rossiya Federatsiyasiga, 25 foizi Qozog'iston Respublikasiga, qolgan qismi Qirg'iziston, Tojikiston, Turkiya va boshqa davlatlarga to'g'ri kelgan<sup>11</sup>. Tashqi migratsiyaning asosiy yo'nalishi MDH mamlakatlari hisoblanib, unda mehnat migratsiyasi asosiy o'rin tutadi. Bugungi kunda Andijon viloyatida nikohdan ajrashganlar soni yil sayin ortib bormoqda.<sup>12</sup> Shu nuqtai nazardan tashqi mehnat migratsiyasining demografik jarayonlarga ta'sirini tadqiq etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekistonda aholi migratsiyasi, demografik jarayonlar va uning xususiyatlari, omillari va muammolari kabi masalalar I.Mullajonov, R.Ubaydullayeva, M.Qoraxonov, E.Ahmedov, O.Otamirzayev, L.P.Maksakova, A.Soliyev, H.Salimov, A.Qayumov, M.Bo'riyeva, 3.X.Rayimjonov, Z.N.Tojiyeva, R.B.Qodirov, G.Hodjayeva, O.Muhammedov va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng o'rganilgan.

Yuqorida keltirilgan olimlarning ilmiy ishlari asosan aholi masalalariga doir tadqiqotlarni o'z ichiga olib, migratsiya masalalari alohida mavzu sifatida tadqiq etilmagan. Shu maqsadda mazkur maqolada migratsiya hususan, tashqi mehnat migratsiyasining demografik jarayonlarga ta'sirini o'rganishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyatlidir. Mazkur masala, yuqori demografik salohiyat va zichlikga ega, Andijon viloyati misolida o'rganildi.

Mazkur tadqiqot ishida asosan sotsiologik so'rovnoma metodidan, shuningdek, geografik taqqoslash, tizim-tarkib, hududiy tahlil, statistik-matematik va boshqa metodlardan foydalanildi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tashqi migratsiyada, O'zbekiston – Rossiya migratsiya aloqalari, xususan noqonuniy mehnat migratsiyasi muhim o'rin tutadi. Bunda O'zbekiston uchun mehnat migratsiyasining ijobiy tomoni uning respublikaga Rossiyadan kelayotgan valyuta resursidir. MDH mamlakatlari orasida Rossiyadan kelayotgan pul miqdori 90 foizdan ortiqni tashkil etmoqda.

---

<sup>10</sup> <http://www.migration.uz/post/view/153>

<sup>11</sup> [www.andstat.uz](http://www.andstat.uz)

<sup>12</sup> <https://www.andstat.uz/uploads/docs/2023.12demografiya.pdf>

Bugungi kunda nafaqat Andijon viloyati, balki respublika tashqi mehnat migratsiyasining salbiy jihatlarini – aholining oilaviy munosabatlaridagi buzilishlar, ko'plab mehnat migrantlari mehnatidan noto'g'ri foydalanish hamda mehnat huquqlarining himoyalalmaganligi, ota-onalarning farzand tarbiyasidagi rolini pasayishi, shuningdek noto'liq oilalarning ko'payish xavfi kelib chiqmoqda. Natijada, ajralishlar va norasmiy nikohlar ko'payishi bugungi kundagi og'ir muammolardan biriga aylanmoqda. Tashqi mehnat migratsiyasi bilan bog'liq vaziyatni tahlil etish maqsadida sotsiologik-demografik so'rovnoma o'tkazildi.

Sotsiologik – demografik so'rovnoma muallif tomonidan Andijon viloyatida shahar va tumanlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, demografik ko'rsatkichlari va geografik joylashgan o'rniga tafovutga ega hududlari, turli joyda va turli kasbdagi kishilari (300 ta) tanlab olindi.

Sotsiologik – demografik so'rovnomaga 21 ta savol kiritildi. Tadqiqot mavzusi doirasida bevosita taalluqli bo'lgan 14 ta savol o'rganilib tahlil etildi. So'rovnomada 20 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan aholi ishtirok etdi. Ishtirokchilarning 36 foizi 20-30 yoshlilar, 27 foizi 31-40 yosh va 26 foizi 41-50 yosh va 11 foizi 51-60 yoshdagilar tashkil etgan. Shuningdek, respondentlarning 54,9 foizini ayollar va 45,1 foizini erkaklar, tashkil etdi. Respondentlarning 52,0 foizini oliy ma'lumotli va 48,0 foizini o'rta va o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lganlar tashkil etgan. Olib borilgan tadqiqotning asosiy maqsadi Andijon viloyati shahar va tumanlarida demografik vaziyatni aniqlash, viloyatdagi tashqi mehnat migratsiyasini demografik jarayonlarga ta'sirini aniqlash bo'lganligi sababli so'rovnomadagi keying savollar bevosita shu xususida.

So'rovnima ishtirokchilarining 51,5 foizi oilali va turmushga chiqqanlar, 42,3 foizi turmush qurmaganlar, 6 foizi ajrashganlar va 1,2 foizi bevalardan iborat bo'lgan. javobini berishgan.

Shuningdek, respondentlarning asosiy qismi (44) farzand ko'rmaganlar bo'lsa, 37 foizning 2-3 nafar, 13 foizi 1 ta farzandli hisoblanadi. Bundan hulosa shuki, so'rovnoma ishtirokchilari asosan hali farzand ko'rmagan yoki 2-3 nafar farzandlilar tashkil etmoqda.

Sotsiologik-demografik so'rovnoma ishtirokchilarning 54 foizining oilasida tashqi mehnat migratsiyasida ishtirok etuvchilar yo'q bo'lsa, 26 foizining oilasidan 1 nafardan va 20 foizining oilasidan 2 va undan ortiq kishilar horijda mehnat faoliyatini olib borishmoqda.

Tashqi mehnat migratsiyasi bilan shug'ullanish bugungi kunda paydo bo'lgan muammo emas. Mazkur jarayon ancha yillardan buyon davom etib kelmoqda. Shunga muvofiq, so'rovnomaga “*Qancha vaqtdan beri tashqi mehnat migratsiyasi bilan shug'ullanadi?*” degan savol kiritildi. Ushbu savolga oilasidagi horijda mehnat qiluvchilari bor respondentlarning 20 foizi 1-2 yil, 40 foizi 3-4 yil va 40 foizi 5-6 yil va undan ortiq deb javob berishgan. Bundan hulosa shuku, tashqi mehnat migratsiyasi bilan shug'ullanish ancha vaqtdan beri davom etib kelayotgan jarayonlardan biri hisoblanadi. Boshqacha aytganda, bu muammo xalqimizni ancha vaqtdan beri qiynab kelayotgan masalalardan hisoblanadi.

Barchaga ma'lumki, tashqi mehnat migratsiyasining asosiy maqsadi oila daromadi uchun amalga oshiriladi. Bunda mehnat migratsiyasi orqali daromad topish va oila byudjetini qoplash muhim ahamiyat kasb etadi. Respondentlarning oila byudjetini asosiy manbai nimadan iborat, yoki tashqaridan yuborilayotgan daromad oila uchun qanchalik yetariliginini bilish maqsadida “*Xorijdan mehnat migratsiyasi orqali kelayotgan daromad miqdorini qanday baholaysiz?*” degan savol berildi. So'rovnoma ishtirokchilarining 57,2 foizi o'rtacha, oila harajatlarini qoplashini, 31,7 foizi ko'p, oila byudjetidan ortishi, 11,1 foizi kam, yetarli emasligini ma'lum qilgan. Respondentlarimiz yani ya'ni mehnat migratsiyasi orqali ko'p migrantlar o'rtacha daromadga ega bo'lishini oila harajatlarini qoplashini belgilashgan.

Tashqi mehnat migratsiyasida qaysi tarmoqlarda bandligini bilish maqsadida “*Tashqi mehnat migratsiyada asosan qanday mehnat bilan bandsiz(yoki tanishlaringiz band?)*” – deb nomlangan savolga ayol respondentlarning (turmush o'rtoqlari yaqin qarindoshlari yokida farzandlari) 40 foizi qurilish, 10 foizi savdo xizmati, 5 foizi boshqaruv sohasida, 45 foizi boshqa sohalarda, erkak respondentlarning 60 foizi qurilish, 5 foizi savdo xizmati, 5 foizi boshqaruv sohasida, 30 foizi boshqa sohalarda ekanligini ma'um qilgan. Bundan ma'lumki, mehnat migrantlari asosan qurilish kabi og'ir mehnat tarmoqlarida band bo'lishmoqda.


O'zbekistonda tashqi mehnat migratsiyasining asosiy yo'nalishi MDH mamlakatlari hisoblanadi. Bizning respondentlar “*Asosan qaysi davlatga ishlagani borasiz yoki tanishlaringiz ishlagani ketishgan?*” – degan savolga 85 foizi Rossiyaga, 5 foizi MDH davlatlariga, 3 foizi Koreya, 3 foizi Turkiya, 1 foiz miqdordan Xitoy, Yevropa, Markaziy Osiyo hamda so'nggi 1 foiz qismi boshqa davlatga degan javoblarni belgilashgan ushbu savolda ko'rib turganingizdek

respondentlarning aksariyati ya'ni 85% Rossiya davlatida mehnat migratsiyasida ekanligi ma'lum bo'ladi.

Demografik jarayonlar, hususan tug'ilish jarayoniga mehnat migratsiyasi ham o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatadi. Shu maqsadda so'rovnoma "Migrantlarimiz qancha muddat ichida yurtiga qaytadi?" degan savol kiritildi. Mazkur savolga respondentlarning 45 foizi 1-2 yilda, 20% 3-4 yilda, 15% foizi 5-6 yilda va 20 foizi 1 yil ichida qaytishadi degan fikrini bildirdi. Bundan ko'rinib turibdiki tashqi mehnat migrantlarining 20 foizi 1 yil ichida o'z oilasiga qaytmoqda. Qolgan qismi 1-2 yil va undan ko'p vaqtda o'z oilalariga qaytmoqda. Tashqi mehnat migrantlarining uzoq vaqtda oilasiga qaytishi albatta tug'ilish jarayoniga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunda ko'proq birinchi, ikkinchi va keyingi farzandlar ko'rish o'rtasidagi davr, ya'ni intergenetik intervalning ortib borishi kuzatiladi. Tahlillarga ko'ra, keyingi yillarda tug'ilgan bolalar soni yosh analardan katta yoshdagi onalarga tomon ortib borishi va oilada o'rtacha farzandlar soni ortganligi aniqlandi<sup>13</sup>. Bu esa ayollarning "Faol reproduktiv davri" katta yoshga tomon siljishiga olib keldi degan hulosa beradi.

Ma'lumki, mehnat migratsiyasining o'ziga xos murakkab va qiyinchilik tomonlari mavjud. O'z ona yurtidan, oilasi va yaqinlaridan uzoq vaqt davomida olisda yurish, vatan, oila va farzandlar sog'inchi migrantlarning o'g'ir dardlari deb aytish mumkin. Shu o'rinda, tashqi mehnat migrantlarining o'z ona yurtida yetarli sharoitlar mavjud bo'lsa, yangi ish o'rinlari yaratilsa vataniga, oilasiga qaytishi to'grisidagi fikri ham muhim ahamiyatga ega. Boisi, uzoq vaqt oilasidan olisda, boshqa madaniyat, boshqa millat, boshqa muhitda yashagan kishining ruhiyati, fikri o'zgarishi murakkab ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Shu maqsadda "Agar yetarlicha ish o'rinlari yaratilsa, tashqi migrantlar qaytadami?" –ushbu savolga respondentlarning aksariyat qismi 75 foizdan ko'p qismi yetarli oylik maosh bo'lsa qaytishlarini aytgan bo'lsa, hattoki 11 foizi kam oylik mash bo'lsa ham oilasiga qaytishini aytib o'tgan. Bu albatta ijobiy holat hisoblanadi. Millat genofondini saqlash, milliy qadriyatlarimiz va urf-odatlarimizni qadrlashda mehnat migrantlarning ma'naviy dunyoqarashi albatta muhim ahamiyatga ega.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholi turmush tarzini yuksalishida aholi bandligi muhim ahamiyatga ega. Albatta aholi bandligini oshirishda yangi ish o'rinlari yaratish dolzarb hisoblanadi. Yangi ish o'rinlari yaratishda hududlarni tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy sharoitlari, ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi geografik omillar, shuningdek, mehnat resurslarining malakasi kabi masalalar muhim rol o'ynaydi. Yil sayin o'sib borayotgan aholini ish bilan ta'minlash, aholi bandligini oshirish doimiy ravishda yangi ish o'rinlari yaratishni taqazo qiladi. Shu maqsadda "Sizningcha, yangi ish o'rinlari qaysi tarmoqlarda yaratilishi lozim deb o'ylaysiz?" degan savol respondentlarga berildi. So'rovnoma ishtirokchilarining 49,2%i xizmat ko'rsatish tarmoqlarida, 27,7%i yengil va oziq ovqat sanoatida, 16,9%i esa mashinasozlik sanoatida degan fikrni bildirishgan yana ayrim respondentlarimiz esa qurilish va barcha sohalarida shuningdek yangidan yangi tarmoqlarda ham yaratilishi lozim degan fikrga to'xtalishgan.



1-rasm. Yangi ish o'rinlarini yaratish yuzasidan respondentlar fikrlari

Ishlab chiqarishni tashkil etishga ta'sir etuvchi geografik, iqtisodiy va ekologik omillarni o'rganish muhim hisoblanadi. Shu maqsadda "Yangi ish o'rinlari qayerda tashkil etilgani maqsadga muvofiq?" degan savolimizga respondentlarning aksariyat qismi (91,5 foizi) yashash joyiga yaqin bo'lishi kerak degan fikrni bildirishgan 5,5 foizi esa viloyat markazlarida va yirik shaharlarda degan

<sup>13</sup> Темиров З.А. Ўзбекистоннинг Фарғона минтақасида демографик жараёнлар ривожланишининг худудий хусусиятлари (Монография). –Андижон. "Ҳаёт нашри-2020", 2022. -59 б.

fikrni bildirishgan qolgan respondentlar esa 3%i ishchi kuchi va hom ashyo ko'p joyda bo'lishi, aholi ko'p istiqomat qiladigan hududlarda bo'lishini bildirishgan. Bundan ko'rinib turibdiki respondentlarning deyarli barchasi yashash joyiga yaqin bo'lgan joydan yangi ish o'rnlarini yaratilishini ushbu ish o'rinlar ularga qulayroq bo'lishni istashmoqda. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning hududiy dasturlarishi ishlab chiqishda mazkur omilni ham inobatga olish lozim deb o'ylaymiz.

Oila a'zolarining uzoq vaqt uyidan olisda bo'lishi hududiy demografik jarayonlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ko'plab yoshlarning nikohlanishdan oldin horijda mehnat qilishi nikohga kirish yoshining ortib borishiga ta'sir etuvchi muhim omillardan hisoblanadi. Respondentlarga *"Tashqi mehnat migratsiyasini yoshlar nikohlanish jarayoniga ta'sirini qanday baholaysiz?"* degan so'rovnomaga savoliga respondentlarning 47,7 foizi nikohga kirish yoshi kattalashib borishiga sabab bo'ladi, 30%i esa nikohlanuvchilarning yoshi o'rtasidagi farq kattalashib ketishini bildirishgan bo'lsa, 17,7 foizi esa nikohga sezilarli ta'siri bor degan javoblarni berishgan. Respondentlarimizning atigi 1 foizi ta'sir kuchi yoq degan fikrni bildirishgan. Rasmiy statistik ma'lumotlar ham yil sayin yoshlarning nikohga kirish yoshi ortib borayotganligini tasdiqlaydi. Shuningdek, ayrim respondentlar turli fikrlarni bildirishgan. Jumladan, nikohga bo'lgan yuzaki qarash, oilalarni buzilishi, notinch oilalarni ko'payishi, oiladagi mustahkamlik tobora yo'q bo'lib ketishi kabi sabablarni keltirib o'tishgan.



## 2-rasm. Tashqi mehnat migratsiyasining nikohga ta'siri bo'yicha respondentlar fikrlari

Aholining ilk nikoh yoshining ortib borishi, ayollarning reproduktiv davrini qisqarib borishiga ta'sir etadi. Bu esa o'z navbatida tug'ilish jarayoniga ham ta'sir ko'rsatadi. Bir ayolning reproduktiv davrida tug'iladigan farzandlar o'rtacha sonini kamayishiga olib keladi. Respondentlarga *"Tashqi migratsiyaning tug'ilish darajasiga ta'siri qanday?"* degan savol berildi. Ushbu savolimizga respondentlarning 50,8 foizi tug'ulishning kamayishiga olib keladi degan javobni bildirishgan bo'lsa, 30,8 foiz respondentlar esa farzandlar o'rtasidagi intergenetik interval ortib boradi degan fikrni bildirishgan. Shuningdek, 12,3 % respondentlar oilani daromadi ortadi va tug'ulish ko'payishiga olib keladi degan fikrni bildirishgan. Ayrim ishtirokchilar tug'ilishga ta'siri yoq yoki sezilarli darajada ta'sir etmaydi degan fikrga kelishgan. Ushbu savoldan respondentlarni 50%idan oriqroq qismi tug'ulish kamayishini bu esa bir qancha salbiy oqibatlarga olib kelishini bildirishgan.

Tashqi mehnat migratsiyasining eng murakkab muammolaridan biri oilalar mustahkamligiga salbiy ta'siri, ajralishlarning ortib borishiga ta'siri deb baholash mumkin. Bugungi kunda Andijon viloyati ajralish darajasi mamlakatdagi eng yuqori ko'rsatkichga ega viloyatlardan biri hisoblanadi. Shu maqsadda so'rovnomaga ishtirokchilariga *"Tashqi mehnat migratsiyasi oilalar ajralishiga salbiy ta'siri qanday deb o'ylaysiz?"* degan savol bilan murojaat qilindi. Ushbu savolga respondentlarning 64,4%i oilalarning mustahkamligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va ajrimlar soni ortadi degan fikrni bildirishgan bo'lsa, 28,5% respondentlar esa oilalarning daromadi ortadi va mustahkamligi barqaror bo'ladi degan javobni belgilashgan boshqa kam sonli respondentlar esa bir biriga ishonch mehr tuyg'ulari yoqolishini ham takidlab o'tishgan yana bir boshqa respondentlarimiz esa ta'siri yoq yani sezilarli darajada emas degan fikrni bildirishgan.

Demografik jarayonlar, xususan o'lim biologik jarayon hisoblanadi. Lekin, o'limga tashqi omillar ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, tashqi mehnat migratsiyasida texnika havfsizligiga amal qilish, mehnat muhofazasiga rioya etish, mehnat resurslarining noqulay mehnat sharoitida faoliyat yuritishi kabilar aholi sog'ligiga va hayotiga havf solishi mumkin. Shu maqsadda *"Tashqi mehnat migratsiyasining aholi o'lim darajasiga ta'sirini qanday baholaysiz?"* so'rovnomadagi ushbu

savolimizga repondentlarning 49,2%i aholi o'lim darajasiga ta'siri yo'q deb o'ylayman degan javobni berishgan, qolgan 47,7%i respondentlarimiz esa tashqi mehnat migratsiyasi o'rtacha umr davomiyligi pasayishiga olib keladi degan javobga to'xtalishgan. Bundan ko'rinib turibdiki respondentlarning ko'p qismi ta'sir yo'q tashqi mehnat migratsiyasini aholi o'lim darajasiga degan javobni belgilashgan.

Sotsiologik-demografik so'rovnomani *“Tashqi mehnat migratsiyasining demografik xavf xatari nimada deb o'ylaysiz?”* degan savol yakunlab berdi. Mazkur savolga repondentlarning 47,7%i farzandlar tarbiyasiga salbiy ta'sir estishini bildirishgan, 40%i esa oila mustahkamligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va noto'liq oilalar ko'payib boradi deb fikr bildirgan bo'lishsa, 9,2% repondentlar esa aholining jinsiy tarkibi va tug'ulish darajasiga ta'sir etadi degan javobni maqqullashgan. Respondentlarning qariyb 90 foiz qismi tashqi mehnat migratsiyasining demografik havf-hatari, jumladan oila mustahkamligiga hamda farzandlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, jamiyatda noto'liq oilalarning ko'payib borishiga olib keladi degan havotirlari mavjud.

### XULOSA

Bugungi kunda O'zbekiston aholisi soni 37 mln kishiga yaqinlashib qoldi. Har yili mamlakatda 1 mln mehnat resurslari qo'shilmogda. Aholi badnligini oshirish, ularni ish bilan ta'minlash, aholi daromadlarini oshirish va turmush tarzini yaxshilab borish bugungi kundagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bu esa hududlarni hom ashyo, mineral va mehnat resurslaridan yanada samarali foydalangan holda yangi ish o'rinlarini yaratishni taqazo etadi.

Mazkur muammo yuqori demografik salohiyatga ega, mamlakat maydonini atigi bir foizini egallagan Andijon viloyatida tadqiq etish yanada dolzarb ahamiyatga ega. Bugungi kunda tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solish, mehnat migratlarini ijtimoiy muhofaza qilish, ularni qo'llab quvvatlash borasida katta hajmdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, aholi migratsiyasi, jumladan tashqi mehnat migratsiyasi hududlarda shakllangan demografik jarayonlarga ham ta'sir ko'rsatadi. Mazkur tadqiqot ishda tashqi mehnat migratsiyasining demografik jarayonlarga ta'siri o'rganishga harakat qilindi. Ushbu maqolani yoritish davomida quyidagi hulos va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- O'zbekiston Respublikasi, shu jumladan Andijon viloyatida migratsiya saldosini manfiy ko'rsatkichga ega hisoblanadi;
- Aholi migratsiyasida migrantlar borayotgan hududlarni kompleks geografik xususiyatlarini hisobga olish, birinchi navbatda geodemografiyasiga e'tibor qaratish kerak;
- Yangi ish o'rinlari yaratishda hududlarni tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy geografik va demografik omillarini hisobga olish, oilalar mustahkamligi va barqarorligini oshirishda mahallaning rolini oshirib borish;
- Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini tuzishda migratsiyaning manfiy saldosini, mehnat migratsiyasining salbiy tomonlarini ham e'tiborga olish tavsiya etiladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдурахманов Қ.Х., ва бошқалар. Демография. Дарслик. - Т.: “Фан ва технология”, 2014. - 368 б.
2. Қодиров Р.Б. Фарғона минтақаси аҳолиси ва меҳнат ресурслари. -Т.: Navro'z, 2016. -168 б.
3. Тоҗийева З.Н. Аholi geografiyasi. Darslik. –Toshkent.: “Nodirabegim”, 2019, -254 b.
4. Темиров З.А. Ўзбекистоннинг Фарғона минтақасида демографик жараёнлар ривожланишининг худудий хусусиятлари (Монография). –Андижон. “Ҳаёт нашри-2020”, 2022. -158 б.
5. Темиров З.А. Фарғона водийси вилоятларида аҳоли миграцияси масалалари // Комплекс географик тадқиқотлар: инновация ва амалиёт. Республика илмий-амалий конференция материаллари. –Андижон, 2022. – Б. 98-100.
6. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
7. [www.andstat.uz](http://www.andstat.uz)